



**UDK: 37.091.2**

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING SIFAT VA SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH**

***Turaboyeva Madina Raxmonjon qizi***

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasи  
katta o‘qituvchisi, PhD  
e-mail: [madinaturaboyeva20@gmail.com](mailto:madinaturaboyeva20@gmail.com)*

***Xabibullayeva Muxlisa Nodirbek qizi***

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim sifati va samaradorligiga erishishning muhim jihatlari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishining talabalari faoliyati va uning muvaffaqiyati eng muhim natija sifatida qaralib, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘quv jarayoni samarali tashkil etilishi lozim bo‘lib, bu esa jamiyatdagi ta’lim sifati va pedagog katta mahoratini, intellektual zakovatini qisqacha qilib umumlashtirganda pedagogik kompetentlikni talab etadi. Shu ma’noda, mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limning sifat va samaradorligini oshirishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish borasida taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘z va iboralar:** sifat, samaradorlik, raqamli muhit, texnologiya, ta’lim tizimi, kasbiy kompetentlik.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В  
ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЧАЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ**

**Аннотация:** В статье рассматриваются важные аспекты достижения качества и эффективности образования в условиях нового Узбекистана. В современном образовательном процессе деятельность учителей начальных классов и учащихся начальных классов и ее успешность рассматриваются как важнейший результат, причем образовательный процесс должен быть организован эффективно, чтобы достичь поставленной цели, а для этого необходима педагогическая компетентность., суммируя качество образования в обществе и большое мастерство и интеллектуальный интеллект

педагога. В этом смысле в статье представлены предложения и рекомендации по использованию передового зарубежного опыта в повышении качества и эффективности начального образования.

**Ключевые слова и фразы:** качество, эффективность, цифровая среда, технологии, система образования, профессиональная компетентность.

## **USING ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN IMPROVING THE QUALITY AND EFFICIENCY OF PRIMARY EDUCATION**

**Abstract:** The article discusses the important aspects of achieving the quality and efficiency of education in the conditions of the new Uzbekistan. In the modern educational process, the activity of primary education teachers and students of primary education and its success is considered as the most important result, and the educational process should be organized effectively in order to achieve the intended goal. , and this requires pedagogical competence, summarizing the quality of education in society and the pedagogue's great skill and intellectual intelligence. In this sense, this article presents suggestions and recommendations regarding the use of advanced foreign experiences in improving the quality and efficiency of primary education.

**Key words and phrases:** quality, efficiency, digital environment, technology, educational system, professional competence.

**KIRISH.** Jahonda ta’lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda “ta’limning hamma bosqichlarida, ta’lim natijalarini baholash samaradorligini oshirish va usullarini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali barcha insonlar uchun hayoti davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishni dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda”<sup>53</sup>. Ilg‘or tajribalar asosida boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirish modellarini takomillashtirish, o‘qitish sifati va samaradorligi monitoringining didaktik parametrlarini ishlab chiqish va yangi avlod darsliklarini yaratishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, boshlang‘ich ta’lim taraqqiyotini tahlil etish asosida prognostik modellarni loyihalash texnologiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda “umumiyl o‘rta ta’lim tizimida ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish, o‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish orqali umumiyl o‘rta ta’limni yangi bosqichga olib chiqish zarur”<sup>54</sup> masala sifatida qaralmoqda. Shuningdek, umumiyl o‘rta ta’lim muktablarining boshlang‘ich

<sup>53</sup> Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

<sup>54</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi PQ-3296-sonli “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. <http://iza.uz/posts/3296>

ta’lim tizimidan o‘quvchilarga sifatli ta’lim ko‘rsatishga doir tadqiqotlarni amalga oshirish pedagogika sohasining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

XXI asr fan-texnika, axborotlashtirish asri bo‘lishligi bilan bugungi jadallahib borayotgan ilm-fan yutuqlari kechagi oldimizga qo‘yilgan rejalarining natijasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv sharoitida mamlakatimiz barqaror taraqqiy yetib borish uchun har tomonlama modernizasiyalashgan tizimli yondashuvni taqozo qilayotganligi munosabati bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizasiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish davlat siyosating muhin yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYASI.** Uzluksiz ta’limni modernizasiyalash orqali o‘quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan Farmon va qarorlar ana shu dolzarb masalalarga yechim topishimizga ko‘mak beradi. Ushbu dolzarb masalalarni yechishda soha rahbarlari, metodistlar oldida qator vazifalar turibdi. Bular:

- o‘quv-tarbiya jarayoniga o‘qitishning zamonaviy ilg‘or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- o‘qitishning mazmuni, ta’lim-tarbiya jarayoni, dars mashg‘ulotlarining sifatli tashkil etilishini ta’minlashda o‘qituvchining kasb mahoratini oshirish;

- dars jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida yaratilgan metodik qo‘llanmalar, ularning multimedia ilovalaridan samarali foydalanish hamda har bir o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishini nazorat qilib borishga oid ilg‘or tajribalarni o‘rganish hamda targ‘ib etish;

- muntazam ravishda boshlang‘ich ta’lim fan metod birlashmalari tomonidan o‘qituvchilarining ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini ustamalar, rag‘batlantirishlar belgilash jarayonida inobatga olinishini ta’minlash;

- o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon ta’lim pedagogikasi va bu sohadagi ilg‘or tajribalar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiysi va kompetensiyaviy yondashuv asoslarini egallashlariga erishish;

- yangi avlod darsliklarining mazmuni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturiga mos bo‘lishini ta’minlash;

- darsliklar o‘quv jarayonining axborotli modelga aylanishiga, o‘quv materiallarining o‘quvchilarni muloqotga undashiga erishish;

- joylarda oliy ta’lim muassasalari hamda pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazlarining kafedralari professor-o‘qituvchilarini biriktirgan holda umumiy o‘rtta ta’lim maktablari negizida boshlang‘ich ta’lim sifat-samaradorligini

oshirishga qaratilgan “Yosh o‘qituvchilar maktabi”, “Mahorat maktabi” va “Metodistlar maktabi” ishlarini takomillashtirishdir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun dunyo bo‘ylab “Sifat inqilobi” yuzaga keldi. Dunyoning yetakchi ishlab chiqarish korxonalari asosiy e’tiborni son va miqdorga emas, balki mahsulot sifatiga qarata boshlashdi. Sifat raqobatbardoshlikni ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘la boshladi.

Sifat - umumiy tushuncha sifatida insonlarning ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan asoslanuvchi mahsulot, material, ish turi, mehnat, xizmatlar va shu kabilarning xususiyatlari hamda xususiy belgilarining majmui bo‘lib, ularni qo‘yilgan talablar va o‘z vazifalariga to‘liq mos kelishi bilan baholanadi. Bunday moslik asosan standartlar, shartnomalar, kelishuvlar, iste’mol-chilarning talablari bilan aniqlanadi.

Sifatga e’tibor va uning rivojlanish bosqichlarini mantiqan quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

1. XX asrning 60-yillari - bozor raqobatbardoshligi sharoitida asosiy omil - mahsulot sifati.
2. XX asrning 70-yillari – mahsulot sifatidan shlab chiqarish texnologiyasi sifatiga o‘tish bosqichi.
3. XX asrning 80-yillari- sifatni boshqarish tizimi bosqichiga o‘tish davri.
4. XX asrning 90-yillaridan boshlab ta’lim sifati, intellektual resurslar sifati, inson hayoti sifati - asosiy omil sifatida namoyon bo‘la boshladi.

Ta’lim sifati – ijtimoiy kategoriya hisoblanib, jamiyatda ta’lim jarayonining holati va natijasini hamda shaxsning kasbiy, maishiy va fuqarolik kompetentligini shakllanishi va rivojlanishini jamiyat talabi va ehtiyojiga mos kelishini aniqlaydi. Ta’lim sifati ta’lim muassasasining o‘quv-tarbiyaviy faoliyatini turli qirralarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar majmui orqali baholanadi. Ushbu ko‘rsatkichlarga ta’lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim mazmuni, o‘qitish shakli va uslublari, materialtexnik baza, xodimlar tarkibi kabilalar kiradi.

Ta’lim sifati – inson hayot faoliyati sifatini oshirish va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo‘ladigan, aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmuidir.

Bilim sifati – o‘quv jarayonini tugatgandan so‘ng olingan bilimlarning fundamentalligi, yuqoriligi va ish jarayonida qanchalik kerakliligi bilan belgilanadi.

“Ta’lim sifati” atamasi quyidagi omillarga bog‘liq holda turlicha ahamiyat kasb etadi:

- ta’lim ishtirokchilarining manfaatlari;
- kirish ma’lumotlari, ta’lim-tarbiya jarayonlari, chiqish ma’lumotlari, maqsad va vazifalar kabi tushunchalarning o‘zaro nisbati;
- baholanadigan sohaning xususiyatlari yoki tavsifi;
- ta’limning tarixiy rivojlanish davri.

Shuningdek, ta’lim sifati atamasi quyidagi turli darajadagi aniqlanishlarga ham ega:

- sifat – eng yuqori ko‘rsatkich sifatida;

- sifat – maqsadga to‘liq erishilgan faoliyat shaklida;
- sifat – yaxshilangan va takomillashtirilgan faoliyat shaklida.

Yuqorida keltirilgan “ta’lim sifati” to‘g‘risidagi aniqlanishlar ta’lim sohasidagi islohotlarning tarixiy davriga bog‘liq holda o‘z afzalliklari va kamchiliklariga egadir.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Ta’lim sifati va uni shakllantirishni doimiy ravishda takomillashtirib borish ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan ta’lim va tarbiya, uni tashkil etish hamda huquqiy tartibga solish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Akademik A.Новиков fikricha, “Ta’lim sifati deganda - me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxs ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim natijasi darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi tushiniladi”<sup>55</sup>. Demak olimning fikricha ta’lim sifati komponentlari me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojdan iborat. Uni baholash uchun esa ushbu komponentlar darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimini aniqlash zarur.

A.М.Кацning fikricha “Ta’lim sifati shaxs, jamiyat va davlatning belgilangan talablarini qondirish darajasini ifodalovchi ta’lim elementlari yig‘indisi” hisoblanadi<sup>56</sup>.

B.Н.Малькова “ta’lim sifati – o‘quvchining mavjud ijtimoiy sharoitlarga moslashishini ifodalovchi munosabatlar tizimi”, degan qarashni bildiradi<sup>57</sup>.

Yuqoridagi fikrlar va qarashlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, ta’lim sifatida shaxs, jamiyat hamda davlat manfaatlari uyg‘unligi ta’milanishi muhim jihat hisoblanadi. Ta’lim sifati va unga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida bayon etilgan qarashlarda aynan qanday ko‘rsatkichlar ta’lim sifatini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanishi, ular ta’sirini baholash mezonlari hamda ta’lim sifatini baholashga yondoshishda qanday tamoyillarga asoslanish zarurligi to‘g‘risida aniq xulosaga kelinmaganligini ko‘rish mumkin.

Ta’lim jarayonida asosiy e’tiborni o‘qituvchi egallaydi. Shu sababli ta’lim sifatini tashkil etish o‘qituvchilar tarkibini to‘g‘ri shakllantirishdan boshlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “...yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish” kabi ustivor yo‘nalishlar belgilangan<sup>58</sup>. Bunday vazifani samarali yechishda o‘qituvchilar, shu jumladan, sind rahbarlarining faoliyati alohida ahamiyatga ega. Sinf rahbarlari o‘quvchilarning bilimlarini rivojlantirish kabi pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchi asosiy shaxs hisoblanadi.

<sup>55</sup> Новиков А.М., Новиков Д.А., “Как оценивать качество образования?”. [www.anovikov.ru](http://www.anovikov.ru)

<sup>56</sup> Кац А.М. [www.mathnet.ru/at13796](http://www.mathnet.ru/at13796)автор: АМ КацТеория и применение регуляторов скорости с упруго-присоединенным катарактом. А. М. Кац Центральный научно-исследовательский дизельный.

<sup>57</sup> Малькова В.А. [studopedia.ru/11\\_140699\\_vnmalkova.html](http://studopedia.ru/11_140699_vnmalkova.html)13 июн. 2015 г. - Новое понимание качества образования формируется в ответ на вызовы со стороны мирового сообщества, страны, области, города.

<sup>58</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. <https://lex.uz>

O‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarga bilim beradi, u bo‘lajak kadrlar shaxsini, dunyoqarashini va ma’naviyatini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli o‘qituvchi sifati, majmuali tushuncha bo‘lib, u asosan quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- kompetentlik darajasi – aniq fan va amaliyot sohasi bo‘yicha yuqori bilim va tajribaga ega bo‘lishi;
- o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanishga qobiliyat va ishtiyoqning mavjudligi;
- kuzatuvchanlik – o‘quvchilardagi qobiliyatlarini va alohida xususiyatlarni tez ilg‘ab olish;
- tashqi va ichki muhit bilan aloqa o‘rnatish qobiliyati;
- o‘z sohasi bo‘yicha tanilganligi, mavqe;
- ilmiy – pedagogik sohasidagi faolligi;
- ilmiy-ijodiy mакtabning mavjudligi.

O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”da mamlakatda “ilm va innovatsiyalarga asoslangan yangi iqtisodiyotni barpo etish” vazifasi qo‘ylgan. Bu vazifalar ijrosi doirasida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish va unda ta’lim sifatiga erishish masalalari ham muhim o‘rin tutadi<sup>59</sup>.

Bugungi kundagi mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim metodikasida quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- 1) o‘quv fanlarini an’anaviy dars metodikasi asosida o‘qitishga ustuvor ahamiyat berish;
- 2) darsning an’anaviy tushuntirish, topshiriq berish va baholash tizimiga amal qilish;
- 3) o‘qituvchilarning ko‘p hollarda darsliklar bilan cheklanib qolishi;
- 4) faol o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalari ommalashmaganligi va h.k.

Bunday turg‘un boshlang‘ich ta’lim metodikasi ko‘p hollarda ta’limning sifat darajasiga ta’sir etayotganligi sir emas<sup>60</sup>. Shu sababli kuzatishlar va o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilash va rivojlantirish ehtiyoji mavjud. Bunday ehtiyojning asosiy sabablarini quyidagilar tashkil etadi:

- a) boshlang‘ich ta’lim bitiruvchilari ta’limning umumiy o‘rta, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan bosqichlariga tayyorlanmoqda;
- b) boshlang‘ich ta’lim o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalarning eng zamonaviy shakllarini joriy etish ehtiyoji;
- v) boshlang‘ich ta’lim bitiruvchilari orasidan iqtidorli o‘quvchilarni tanlab olish va ta’limning keyingi maxsus bosqichiga yo‘naltirish;
- g) boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini aniq, gumanitar va tabiiy fanlar turkumlariga bo‘lib o‘qitish.

Bularning barchasi hozirgi boshlang‘ich ta’lim metodikasini tubdan o‘zgartirish, yangilash va takomillashtirishni taqozo etadi.

<sup>59</sup> Mardonov Sh., Jabborova O. Boshlang‘ich ta’limda asosiy tushunchalar. XXI asr ta’lim tizimida innovatsiogn va integratsion yondashuvlar. Jizzax. 2021, B. 312-314.

<sup>60</sup> Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург, 2001.

Ayni paytda, boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha to‘plangan tajribalardan ham voz kechib bo‘lmaydi. Misol uchun, bu borada quyidagi tajribalarning mavjudligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz:

- mamlakatimizda boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha o‘ziga xos individual metodik tajribalar majmui mavjud;
- an’anaviy dars vositasida mavzularni chuqur tushuntirish tajribasini ham ta’kidlab o‘tish joiz;
- ko‘pgina boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining novatorlikka intilish harakatlari ham mavjud.

Bunday tajribalar boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilashda poydevor vazifasini o‘tashi kerak.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasining hozirgi holatida ilmiy-tadqiqotlar yo‘nalishi ham muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimiz pedagog olimlari bu masalada quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotganligini ta’kidlab o‘tish joiz:

- boshlang‘ich ta’lim metodikasini axborot-kommunikatsion vositalarga asoslangan texnologiyalar bilan kuchaytirish;
- boshlang‘ich ta’lim metodikasining nazariy va metodologik masalalarini tahlil etish;
- boshlang‘ich ta’lim metodikasi manbalarini o‘rganish;
- boshlang‘ich ta’lim metodikasiga doir xorijiy tajribalarni tadqiq etish.

Bularning barchasi hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim metodikasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, yangi O‘zbekiston sharoitida boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada, quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) axborot-kommunikatsion texnologiyalarning kompyuterli, onlayn va masofaviy shakllarini boshlang‘ich ta’limga joriy etish muammolari;
- 2) boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlarini integratsiyalash muammolari;
- 3) boshlang‘ich ta’lim didaktik jarayonini texnologiyalashtirish va o‘qitishda sifat samaradorligiga erishish muammolari;
- 4) boshlang‘ich ta’lim metodikasini yangilashning ilmiy, nazariy va metodologik omillari;
- 5) boshlang‘ich ta’lim metodikasini takomillashtirishga doir xalqaro ta’lim dasturlari tajribalari.

**XULOSA.** Mazkur yo‘nalishlarda ilmiy, nazariy va metodologik tadqiqotlar olib borish boshlang‘ich ta’lim metodikasining hozirgi holatini rivojlantirish imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlari mazmun, uslub va samara jihatidan sifatli natijalarga erishish uchun mo‘ljallangan. Bunda har bir yo‘nalishning natijasi yil yakunida ko‘rib chiqilishi belgilab qo‘ylganligini eslatib o‘tish joiz.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda boshlang‘ich ta’lim metodikasi bo‘yicha yangicha nazariy bilim va kasbiy ko‘nikma berish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasiga doir amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlarni va ularda ishlab chiqilgan metodikani ta’lim va tarbiya jarayoniga joriy etib borish dolzarb ekanligini ta’kidlash lozim. Bu borada oliy pedagogik ta’lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o‘qitish imkoniyatlaridan chuqur foydalanish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, oliy pedagogik ta’lim jarayonida boshlang‘ich ta’lim metodikasi asoslarini chuqur o‘rganish, o‘rgatish va uning nazariy masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada boshlangan ishlarni amaliyotga yo‘naltirish muhim sanaladi. Ayniqsa, iqtidorli talabalarni boshlang‘ich ta’lim metodikasi muammolari bo‘yicha izlanishlarga jalb qilish samarali hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi PQ-3296-sonli “Zamonaviy mакtab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. <http://uza.uz/posts/3296>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. <https://lex.uz>
3. Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург, 2001.
4. Incheon Declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
5. Кац А.М. [www.mathnet.ru/at13796](http://www.mathnet.ru/at13796)автор: АМ КацТеория и применение регуляторов скорости с упруго-присоединенным катаректом. А. М. Кац Центральный научно-исследовательский дизельный.
6. Малькова В.А. [studopedia.ru/11\\_140699\\_vnmalkova.html](http://studopedia.ru/11_140699_vnmalkova.html)13 июн. 2015 г. - Новое понимание качества образования формируется в ответ на вызовы со стороны мирового сообщества, страны, области, города.
7. Mardonov Sh., Jabborova O. Boshlang‘ich ta’limda asosiy tushunchalar. XXI asr ta’lim tizimida innovatsiogn va integratsion yondashuvlar. Jizzax. 2021, B. 312-314.
8. Новиков А.М., Новиков Д.А., “Как оценивать качество образования?”. [www.anovikov.ru](http://www.anovikov.ru)
9. To‘raboyeva M.R. Technology of development of students’ personal and creative competence on the example of pedagogical sciences // “European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences” Great Britain. 12/2020. Part 2. 16-18.